

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA GLYUTTONIK LEKSIKANING O'RGANILISH XUSUSIYATLARI

Temirova Kamola Baxtiyor qizi

kamolatemirova28@gmail.ru

Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11608218>

Annotatsiya. Ushbu maqolada gastronomiyaga oid birliklar, glyuttonik leksikaning filologik va tarixiy jihatdan o'rganilish bosqichlari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: gastronomiya, glyuttonik leksika, oziq-ovqat mahsulotlari, taom nomlari, pazandachilik tarixi

LEARNING CHARACTERISTICS OF GLUTTONOUS LEXICON IN UZBEK LINGUISTICS

Abstract: This article shows the stages of philological and historical study of units related to gastronomy, gluttony lexicon.

Key words: gastronomy, gluttony lexicon, food products, food names, culinary history

УЧЕБНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЧРЕВОУГОДНОЙ ЛЕКСИКИ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Аннотация. В данной статье показаны этапы филологического и исторического изучения единиц, связанных с гастрономией, лексикой чревоугодия.

Ключевые слова: гастрономия, лексика чревоугодия, продукты питания, названия продуктов питания, история кулинарии.

XX 70-yillaridan e'tiboran AQSh hamda yevropa mamlakatlarida milliy oshpazlik realiyalariga e'tibor gastronomik madaniyatga kundalik madaniyatning shakli sifatida qarashni shakllantirib, oqibatda gastronomik leksikani milliy xoslangan unsur sifatida tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirdi. Bu borada mazkur lug'aviy qatlamga tartib berib lug'atlashtirishning milliy korpus hamda lingvodidaktik ahamiyati ortdi. Masalaning dolzarbligi bir jihatdan, chetdan o'zlashayotgan glyuttonimlarning tarjimadagi muammolariga aloqador bo'lsa, ikkinchi tomondan, tillararo zamonaviy glyuttonik leksikaga tartib berilgan izohli lug'atlarga o'sayotgan talab bilan amaldagi leksikografiyaning holati o'rtasidagi ulkan farq mazkur mavzuning ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Dunyo tilshunosligida kognitiv, lingvomadaniy yondashuvlarga ko'ra glyuttonik leksika va unga doir diskurs doimiy e'tibordagi mavzulardan sanaladi: bunda olam gastronomik

manzarasining madaniyatlar integratsiyasi sabab dinamik ravishda kengayib borishi milliy tillarda glyuttonik terminologiyani konstruktiv qarab chiqish va unga doir izohli lugʻatlarni doimiy tarzda toʻlgʻazib, yangilab borish talabini qoʻyadi. Milliy tillardagi izohli lugʻatlar uchun gastronomik soʻzlikni saralash va uni lugʻat mikrostrukturasida berish tamoyillari mutlaqo til sohibining gastronomik madaniyati, taʼmga doir didi va tanlov xususiyatlarini aks ettirmogʻi lozim. Bu boradagi tadqiqotlar salmogʻini esa yetarli deb boʻlmaydi.

Maʼlumki, tilshunoslikda soha atamalarining turli jihatlarini yoritishga doir anchagina izlanishlar olib borilgan. Ushbu muammolarni tadqiq etishga tilshunoslardan N.Dmitriyev, N.Baskakov, A.Reformatskiy, V.Danilenko, N. V. Golovnitskaya, D.Yu.Gulimova, A. B. Olyanich, V. Pletnyova, N.Mamatov, S.Ibrohimov, M.Abdiyev va boshqalar munosib hissa qoʻshdilar.

Oʻzbek tilshunosligida oziq- ovqat - taom nomlari ham baʼzi ishlarning oʻrganish obyekti boʻlgan¹. Tadqiqotchi olim M. Xudayarovanning “Oʻzbek tilidagi taom nomlarining lingvistik tahlili (Qoraqalpogʻiston hududi materiallari asosida) nomzodlik dissertatsiyasida Qoraqalpogʻiston oʻzbek shevalaridagi taom nomlarining leksik xususiyatlari oʻrganilgan. Ishda muayyan hudud xalq anʼanaviy taom nomlari, shuningdek, shirinlik, qandolat nomlari lisoniy tadqiq etilgan, shuningdek, taom nomlarining tarixiy ildizlari haqida ham fikr yuritilgan. Oʻzbek tili lugʻat tarkibida baʼzi unutilayozgan til elementlari, mavzuga doir til tarixidagi leksik-grammatik hodisalarga ham eʼtibor qaratilgan.

Oʻzbek tilshunosligida pazandachilik leksikasini N.Ikromova oʻrgangan. U asosan Toshkent shahri shevasidagi taom nomlarini oʻz tadqiqotiga kiritgan².

Oʻzbek xalq shevalari oʻrganilgan ishlarida ham ayrim oziq-ovqat - taom nomlari haqida maʼlumotlar berilgan³.

Professor H.Dadaboyevning “Devonu lugʻatit turkning til xususiyatlari” nomli monografiyasida eski turkiy tilning fonetik, leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilingan⁴. Kitobda lugʻat soʻz boyligidagi oziq- ovqat mahsulotlari, taom va ichimlik nomlarini ifodalovchi leksemalar ham tahlil qilingan.

Ibatova Amira oʻzining “Oʻzbek tilida non va non mahsulotlari bilan bogʻliq lugʻaviy birliklar tadqiqi” nomli monografiyasida sohaga doir maxsus termin boʻyicha ish amalga

¹ Xudayarova M. Oʻzbek tilidagi taom nomlarining lingvistik tahlili. Filol.f.n. dis... avtoreferati. -T.: 2008.

² Ikromova N. Uzbekskaaya kulinarnaya leksika: Dis. ... kand. filol. nauk. - Tashkent, 1983. - 168 s.

³ Oʻzbek xalq shevalari lugʻati /Masʼul muharrir: Sh.Shoabdurahmonov. -T.: Fan, 1971; Gʻaybullaev S. Qorakoʻl shevasining tarovati. -T.: Nihol, 2017.

⁴ Dadaboyev H. “Devonu lugʻatit turk”ning til xususiyatlari. -T.: TDSH, 2017, 66-75-betlar.

oshirgan.⁵

Filolog olimi Gulnoza Odilova o'zining "Glyuttonik diskurs asoslari" nomli ilmiy ishida gastronomik turizmni rivojlantirishda glyuttonik diskurs tadqiqining ahamiyatini ko'rsatib bergan.

Gastronomik birliklar, shuningdek, taom nomlarini nafaqat lison, balki tarixiy tomondan ham etnografik leksikaning bir qismi sifatida o'rganishga e'tibor oshmoqda. Shunday ishlardan K.Shoniyo'zov va taom nomlarini tarixiy-etnografik jihatdan o'rgangan M.Qurbonovalarning⁶ tadqiqotini aytib o'tish joiz.

O'zbek taomlarining turlari va ularning tayyorlash usullari bo'yicha ommabop kitoblar ham nashr qilingan⁷.

Mavjud nashrlar, tadqiqiy materiallarning bo'lishiga qaramay, o'zbek gastronomik leksikasini lug'atlashtirish muammolariga bag'ishlangan alohida tadqiqotning bajarilgani bizga ma'lum emas, lekin shuni ham qayd etib o'tishimiz kerakki, diaxronik va sinxronik lug'atlarda ifodalangan birliklar, jumladan, gastronomik birliklarning ifodalanishi yakdil lug'at yaratishga poydevor vazifasini o'taydi.

REFERENCES

1. Xudayarova M. O'zbek tilidagi taom nomlarining lingvistik tahlili. Filol.f.n. dis... avtoreferati. -T.: 2008.
2. Ikramova N. Uzbekskaya kulinarnaya leksika: Dis. ... kand. filol. nauk. - Tashkent, 1983.
3. O'zbek xalq shevalari lug'ati /Mas'ul muharrir: Sh.Shoabdurahmonov. -T.: Fan, 1971; G'aybullaev S. Qorako'l shevasining tarovati. -T.: Nihol, 2017.
4. Mahmudov K. O'zbek tansiq taomlari. - T.: Mehnat, 1989. - 342 b;
5. Odilova G. Glyuttonik diskurs asoslari. Toshkent. "Mumtoz so'z", 2020.

⁵ Ibatova Amira. "O'zbek tilida non va non mahsulotlari bilan bog'liq lug'aviy birliklar tadqiqi". Monografiya. Samarqand. 2022.

⁶ Qurbanova M. Buxoro vohasi o'zbek va tojiklarining an'anaviy taomlari: Tarix f.n...dis. -T.:1994. -158 b.

⁷ Mahmudov K. O'zbek tansiq taomlari. - T.: Mehnat, 1989. - 342 b;

Do'stjanov B. Xorazm taomlari. - T.: O'zbekiston, 1994. - 88 b.